

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

1-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Yakubov Akmal

SOVET HOKIMIYATINING TURKISTONDA SOVET RESPUBLIKALARINI
BARPO ETISH BO‘YICHA SIYOSATI 09-21

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

МЕЖДУ ДИПЛОМАТИЕЙ И ИМПЕРСКОЙ СТРАТЕГИЕЙ:
ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ
МУХАММАДА РАХИМХАНА I (1806–1825 гг.) 22-31

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich

DEGGARON MASJIDINING SOVET O‘LKASHUNOSLARI TOMONIDAN O‘RGANILISHI 32-47

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich

QO‘QON XONLIGI DAVRIDA HARBIY KUCHLARNING QUROL-ASLAHALAR BILAN
TA‘MINLANISHI VA MODDIY BAZASINING RIVOJLANISH JARAYONI 48-53

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Umurzaqova Umida Nosirjanovna, Gafurjonov Jamshidbek Furkat o‘g‘li

SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-EKOLOGIK OPTIMALLASHTIRISH
IMKONIYATLARI BO‘YICHA JAHON TAJRIBASI TAHLILI 54-58

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yunusova Manzuraxon Pazliddinovna

O‘ZBEKISTONDA O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARINI FUQAROLIK
JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA ISLOH ETISH JARAYONI 59-68

Karimov Xurshid Abdumannabovich

AN‘ANA VA AXLOQIY UNIVERSALIZM – FALSAFIY KOMPARATIVISTIKA
KONTEKSTIDA 69-74

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o‘g‘li

O‘ZBEKISTONDA MAHALLIY ODATLAR VA MAROSIMLARNING SHAKLLANISHI
VA ULARNING FALSAFIY-TARIXIY MOHIYATI..... 75-82

Norqulov Shahzod Shuhrat o‘g‘l

IJTIMOIIY REKLAMA TUSHUNCHASI: MOHIYAT VA FUNKSIYALAR..... 83-87

Beshimov Xamidjon Sayidovich

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA INSON QADRINI BELGILASH MEZONLARI
HAMDA ZAMONAVIY JAMIYATDA INSON QADRINI TA‘MINLASHDA KASABA
UYUSHMALARINING ROLI..... 88-96

Нишонов Сарвар Жасур угли

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СМЫСЛОБРАЗУЮЩИХ КАТЕГОРИЙ СОЦИАЛЬНОЙ
ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХУСЕЙНА ВАИЗА КАШИФИ).. 97-105

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> SHAHARLARDA ATROF MUHIT MASALALARINI HAL ETISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKINI TA'MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI.....	106-112
<i>Eshimbetov G'ulomjon Sultonbayevich</i> ICHKI ISHLAR ORGANLARINING KADRLAR BILAN ISHLASH XIZMATLARI FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	113-122
<i>Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOYIY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH TUSHUNCHASI HAMDA IJTIMOYIY ZARURATI	123-132
<i>Марданов Жасурбек Отабек угли</i> УГОЛОВНОЕ ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ВОВЛЕЧЕНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО В АНТИСОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ	133-138
<i>Mamadjonov Temurali Barotjon o'g'li</i> FUQARONI BEDARAK YO'QOLGAN DEB TOPISH VA VAFOT ETGAN DEB E'LN QILISHNING AYRIM MASALALARI	139-143
<i>Jumumbetov Rasul Jengizbayevich</i> GEOGRAFIK KO'RSATKICHLARDAN FOYDALANISH HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI	144-150
<i>Suyunov Bobir Bahodirovich,</i> RAQAMLI JAMIYATDA TALON-TAROJLIK: KIBER-XAVFLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI.....	151-155
<i>Kdirbaeva Altinay Maksetbaevna</i> ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR XIZMAT O'TASH TARTIBINI BELGILASHGA DOIR RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINING ILMIY TAHLILI	156-163
<i>Abduhoshimov Ismoil Abdug'ani o'g'li</i> KORRUPSION JINOYATLARNING O'ZIGA XOS TAHLILI.....	164-168
<i>Хошимова Юлдузхон Олимжоновна</i> СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИЗНАНИЯ ОБЩЕИЗВЕСТНЫХ ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ	169-175
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli</i> ALIGNING UZBEKISTAN'S PRIVATE INTERNATIONAL LAW WITH WTO PRINCIPLES: THE ROLE OF CHOICE OF LAW IN GATS IMPLEMENTATION	176-180
<i>Aripov Abid Adilovich</i> O'ZBEKISTONDA CHET EL FUQAROSI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY MAQOMI.....	181-189
<i>Tolibayeva Malika Ulmasjon qizi</i> ADVOKATNING IQTISODIY VA FUQAROLIK PROTSESSIDAGI ISHTIROKI: XORIJIY VA MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI.....	190-197
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ОЦЕНКА ДЕЙСТВУЮЩЕГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ПУТИ ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	198-204
<i>Abdullayeva Parvina Baxrilloevna</i> RAQAMLI PLATFORMALAR BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALAR TALQINI	205-212

Nurmatov Jasur
OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR
PROFILAKTİKASINING RETROSPEKTIV TAHLILI 213-222

Шадиева Сайёра Арифовна
ОСОБЕННОСТИ РАССМОТРЕНИЯ ДЕЛ О ПРИМЕНЕНИИ МЕР ПРАВОВОГО
ВОЗДЕЙСТВИЯ К СУБЪЕКТАМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА 223-233

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Bahrom Norboyevich
DARSLIK MANTLARI VA KOMPETENSIYA PARADIGMASI:
NISBAT MUNOSABAT VA O'ZARO BOG'LIKLIK ("ONA TILI DARSLIGI MISOLIDA")..... 234-241

Qurbonova Barchinoy Mirzahamdovna
TOPOGRAFIK KARTALARGA OID TUSHUNCHALAR, ENG MUHIM SHARTLI BELGILAR
VA LANDSHAFT DIZAYNIDA ICHKI FAZOVIIY MUHIT, HAJMIY SHAKL
VA TEVARAK-ATROF 242-246

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
QALAMTASVIRDA GEOMETRIK SHAKLLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORT
HAMDA TEXNIK VA SAN'AT FANLARINI TURLI FANLAR BILAN INTEGRATIV
HAMDA SINERGETIK O'QITISHNI NAZARIY YECHIMLARI 247-251

Temple Chimuanya Odimegwu
REVIEW ON FILLER EFFECT OF VARIOUS NONREACTIVE MATERIALS
IN CONCRETE 252-265

Arustamyan Yana Yuryevna, Toshpo'latov Omonulloxon Ulmas o'g'li
O'ZBEKISTON XUSUSIY UNIVERSITETLARIDA TA'LIMNI BOSHQARISHNING
HOZIRGI HOLATI, STRATEGIK YECHIMLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH
SSENARIYLARI 266-271

Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi
INNOVATSION YONDASHUVNING BO'LAJAK PEDAGOG VA TARBIYACHILARNING
IJODIY KOMPETENSIYASIGA TA'SIRI 272-277

Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING PEDAGOGIK
ASOSLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI 278-283

Kurbonova Shoxsanam
TASVIRIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR O'QUV-IJODIY
FAOLIYATINI INTEGRATIV RIVOJLANTIRISH METODIKASI..... 284-289

Toxirov Shaxzod Toxirovich
IJTIMOIY INTELLEKTNING TARKIBIY QISMLARI VA UNING PEDAGOGIK
FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI..... 290-294

Raximjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna
GLOBAL KONTEKSTLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA
UCHUN TANQIDIY FIKRLASH 295-300

Received: 16 December 2025

Accepted: 1 January 2026

Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

BY SOVIET REGIONAL ETHNOGRAPHERS OF THE DEGGARON MOSQUE

Gadoev Dadaxon Khayrulloevich

Independent Researcher at Bukhara State University

Abstract. This article analyzes the historical and architectural features of the Deggaron Mosque and examines the process of its study by Soviet scholars and ethnographers. The research considers the mosque's construction stages, planning solutions, and scientific conclusions derived from archaeological observations. In addition, the approaches of Soviet researchers, the evaluation of their works as sources, and the mosque's role in entering scholarly discourse are highlighted. The article systematically examines the history of research on the Deggaron Mosque, substantiating the significance of this monument in the context of contemporary architectural heritage.

Keywords: Deggaron Mosque, Architectural monument, Soviet ethnography, Archaeological research, Historical sources, Construction techniques, Planning solutions, Architectural analysis, Soviet-era scholarly studies, History of research, Local academic school, Architectural heritage, Study of religious buildings, Scientific approach, Historical and cultural heritage.

DEGGARON MASJIDINING SOVET O'LKASHUNOSLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0000-0002-2596-3933>

E-mail: dadaxonteacher1989@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Deggaron masjidining tarixiy-arxitektura xususiyatlari va uning Sovet davri olimlari hamda o'lkashunoslari tomonidan o'rganilish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida masjidning qurilish bosqichlari, rejalashtirish yechimlari va arxeologik kuzatuvlar asosida shakllangan ilmiy xulosalar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sovet olimlarining yondashuvi, ularning ishlari manba sifatida baholanishi hamda mazkur yodgorlikning ilmiy muomalaga kirib kelishidagi o'rni yoritiladi. Maqola Deggaron masjidining o'rganilish tarixini tizimli ravishda tahlil etib, yodgorlikning bugungi arxitektura merosidagi ahamiyatini asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Deggaron masjidi, Arxitektura yodgorligi, Sovet o'lkashunosligi, Arxeologik tadqiqotlar, Tarixiy manbalar, Qurilish texnikas, Rejalashtirish yechimi, Arxitektura tahlili, Sovet davri ilmiy izlanishlari, O'rganilish tarixi, Mahalliy ilmiy maktab, Me'moriy meros, Diniy inshootlar tadqiqoti, Ilmiy yondashuv, Tarixiy-madaniy meros.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N03>



Kirish. Karmana tumani markazining 30 kilometr g'arbidagi Hazora qishlog'i yonida Movarounnahrdagi eng qadimgi masjidlardan biri Deggaron masjidi joylashgan. Ushbu masjid Markaziy Osiyo o'rta asrlar me'morchiligida qadimiy va betakror me'moriy konstruksiyaga ega bo'lgan yagona inshoot desak mubolag'a bo'lmaydi.

Deggaron masjidi — zamonaviy O‘zbekiston hududida saqlanib qolgan eng qadimiy islomiy binolaridan biridir. So‘nggi tadqiqotlarga ko‘ra, masjidning qurilgan vaqti taxminan XI asrga to‘g‘ri keladi. U Me‘moriy yodgorliklarning Davlat reyestriga kiritilgan, Ro‘yxat №44.

Uzoqdan qaralganda, tekis dasht hududi joylashgan Hazora qishlog‘idagi Deggaron masjidining silueti¹ yaqqol ko‘zga tashlanadi². Masjid zardushtiylar davri me‘morchiligi uslubida qurilgan.



1937-yilgi Deggaroni masjidi (1-rasm)

Hazorada joylashgan mazkur masjid 1934-yilda A.Y. Yakubovskiy rahbarligidagi Davlat Ermitaji hamda Uzkomstaris ekspeditsiyasi tomonidan aniqlangan bo‘lib, hozirgi kunda davlat muhofazasida turadi [3-17]. Ekspeditsiya davomida ma‘lum bo‘lishicha, qadimiy masjid avvalroq barpo etilgan masjid o‘rnida qad rostlagan, shuningdek, bino atrofida qadimiy turar-joy xarobalari qoldiqlari ham topilgan. Ehtimol, qadimiylik bo‘yicha bu masjidni qadimiy me‘morchilikning yana bir asari – XII asrda Buxoroda qurilgan Magoki-Attor masjidi bilan solishtirish mumkindir. Masjid shahar xarobasining (qadimgi qal‘a hududining) janubi-g‘arbiy qismida, Zarafshon daryosining chap qirg‘og‘ida joylashgan. Qal‘aning qadimiy nomi hozircha aniqlanmagan. Qal‘a yaqinida hunarmandchilikka ixtisoslashgan shaharchada asosan qozon (deg) ishlab chiqarishga mo‘ljallangan kulolchilik buyumlari tayyorlangan. Shuningdek, yaqin atrofda joylashgan Avliyo Deggaron maqbarasi mahalliy kulollar homiysi kultiga bog‘liq bo‘lgani ehtimol qilinadi. Shu bois masjidning nomi ham mazkur kult bilan izohlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi: Yodgorlikning qisqacha tavsifi V.A. Shishkin tomonidan tuzilgan, rejasi esa A.Y. Yakubovskiyning Dala kuzatuv kundaligida saqlangan. Keyinchalik ushbu masjid N.Zasipkin tomonidan ham qayd etilgan[. Yodgorlik xorijiy

¹ Shakl va narsalarning tekis yuzada yaratilgan bir tUSDagi tasviri.

² 1940-yilda O‘zbekiston SSRning San‘atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan Qashqadaryo viloyatiga monumental me‘morchilik yodgorliklari va xalq uy-joy me‘morchiligini o‘rganish, shuningdek Hazora qishlog‘idagi masjidni tekshirish maqsadida ekspeditsiya uyushtirilgan. Ekspeditsiya materiallarining bir V.Varonina Hazora masjidi maqolasida o‘z aksini topgan.

adabiyotlarda ham tilga olinadi. Biroq mavjud manbalarning birortasida uning shakli va batafsil o'lchovlariga oid to'liq tahlili keltirilmagan[17-45].



Deggaron masjidining 1937-yilgi ko'rinishi muallif N.Zasipkin (2-rasm)

1940-yil kuzida V.Voronina va arxeolog S.Kabanov bilan hamkorlikda Deggaron masjidida tadqiqot olib boradilar. Tadqiqot davomida masjid batafsil o'rganish amalga oshiriladi hamda poydevorlarini aniqlash maqsadida shurf qaziladi.

A.Y. Yakubovskiy masjidni Ismoil Somoniy davriga yoki undan ham oldingi davrga mansub deb hisoblaydi. A.Y. Yakubovskiy masjidni bu davrda sanalishiga quyidagi omillar asos bo'lgan: binoning markaziy peshtoqsiz kompozitsiyasi; me'moriy shakllarining xususiyatlari, Ismoil Somoniy maqbarasida qo'llangan g'ishtlarga mutlaqo o'xshash g'isht o'lchamlarining mavjudligi, masjidning sitadel¹ devori yaqinida joylashganligi, shuningdek, shahar xarobasida X asrdan keyingi davrga oid keramikaning topilmaganligi asos bo'lgan. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, keltirilgan ayrim dalillar aslida sanani to'g'ri belgilash uchun yetarli isbot bo'la olmagan.

Peshtoqsiz kompozitsiya kam uchrasa-da, keyingi davrlarda bunday peshtoqlar uchratish mumkin. Jumladan, XI asrlarga (qoraxoniylar) mansub Safed Bulon qishlog'idagi Shoh-Fozil maqbarasi. Shuni ta'kidlash joizki, masjidning sharqiy devori XX asrda qayta terilgan bo'lsa-da, o'tmishda ham peshtoq mavjud bo'lmaganligi eng ehtimoliy hol sifatida baholanadi. V.Varoninaning ma'lumot berishicha Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasida qo'llangan g'isht o'lchamlari Hazrora masjidi g'ishtlari bilan to'liq mos kelmagan, faqat o'xshashligini ta'kidlaydi. Haqiqatan ham yodgorlikning shakli ancha arxaik bo'lib, uning qadimgi kelib chiqishini ko'rsatadi. Biroq masjidning aniq davrlashtirish masalasiga alohida to'xtalish lozim.

Deggaron masjidi o'zining arxitektura va konstruktiv xususiyatlari bilan alohida qiziqarli obyekt sifatida e'tiborni tortadi. O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklarida qurilish materiali sifatida asosan pishiq qilinmagan loy va xom g'isht qo'llanib, qurilish texnikasi vaqt o'tishi bilan asta-sekin takomillashib borgan. Ma'lum yodgorliklar orasida pishiq g'ishtdan foydalanilgan eng dastlabki namunalar X asrga taalluqli bo'lib, bunga Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi misol bo'la oladi.

Hazora qishlog'idagi masjid aralash qurilish texnikasida barpo etilgan bo'lib, uning yopmalari va ustunlari pishiq g'ishtdan, devorlari esa xom g'ishtdan qurilgan. Ba'zi o'ziga xos konstruktiv elementlar yodgorlikni o'z turiga mansub alohida konstruktiv hodisa sifatida

¹ Sitadel (citadel) — bu shahar yoki qal'ani himoya qiluvchi asosiy istehkom, qal'aning o'zagi hisoblanadi. Bu ko'pincha shahar devorlari ichida joylashgan eng kuchli va mustahkam qismi bo'lib, dushman hujumi paytida so'nggi tayanch nuqtasi vazifasini o'taydi. Shuningdek, bu atama ko'p hollarda himoyaviy ahamiyatga ega bo'lmagan joylar uchun ham, "asosiy tayanch" yoki "markaz" degan ma'noda metaforik tarzda ishlatilishi mumkin.


baholash imkonini beradi. Inshootning umumiy shakli ham o'ziga xos bo'lib, uni boshqa yodgorliklardan ajratib turadi (3-rasm).

Deggaron masjidi rejasi deyarli kvadrat shaklga ega bo'lib, tashqi o'lchamlari 15,0 m va 16,6 m, ichki o'lchamlari esa 13,75 m va 12,25 m ni tashkil etadi (4-rasm). Inshoot to'qqizta gumbaz bilan qoplangan bo'lib, markaziy gumbaz qolganlariga nisbatan balandroq turadi. Gumbazlar devorlarga hamda masjid ichidagi to'rt yirik yumaloq ustunga tayanuvchi o'tkir yoysimon kamarlarga tayanadi. Xom g'ishtdan qurilgan devorlar ichkaridan ham, tashqaridan ham loy-somon bilan suvalgan. Gumbazlar esa pishiq g'ishtdan barpo etilgan bo'lib, ichki tomoni ochiq qoldirilgan, tashqi tomoni esa loy-somon qorishmasi bilan qoplangan. Kamarlari va ustunlari ganch (alebastr) bilan silliqlangan.



Deggaron masjidining XX asr boshida janubi-g'arbdan ko'rinishi (3-rasm)

Masjidning sharqiy qismidagi uch gumbaz va ularga mos devorlar keyinchalik barpo etilgan. Uzkamstaris Ulugovaning ta'kidlashicha, ular XX asr boshlarida qulab tushgan qismlarning o'rniga qayta tiklangan. Gumbaz qadimiy kvadrat poydevorining eski g'ishtlaridan, devorlar esa zamonaviy pishiq g'ishtdan bo'sh chokli (pustoshovka) usulida terilgan. Devorlar ichkaridan ham, tashqaridan ham suvalmagan holda saqlangan (1940-yildagi V. Varonina kuzatuv). Masjidga janub va sharq tomonidan tutashgan ayvon sharqiy devor bilan bir vaqtda qurilgan bo'lib, alohida arxitektura xususiyatiga ega emas. Yog'och ustunlar ostiga qo'yilgan marmar plitalar esa keyingi davrlarga mansub bo'lib, ehtimol yaqin atrofdagi qabristondan olingan bo'lishligi taxmin qilinadi.



Deggaron masjidining sxemasi (4-rasm)

Masjidning eski xom g'isht devorlari yuqoriga ko'tarilgan sari keskin torayib borgan. Balandligi 6 metrdan ortiq bo'lgan bu devorlarning pastki qismi 1,5 metr qalinlikda, gumbazlar qismida esa bir necha qator pishiq g'isht bilan tugallangan bo'lib, qalinligi 30 santimetrdan biroz oshadi. Shunday konstruksiya tufayli masjidning asrlarga bardosh berib saqlanib qolganligi hayratlanarlidir. Devorning ichki yuzasi tik holda qolgan bo'lsa, tashqi yuzasida ancha og'ish kuzatiladi. Ushbu holat kamarlar va gumbazlardan tushadigan yon bosimni bartaraf etish zaruratidan kelib chiqqan.

Yangi sharqiy devor tik holatga ega bo'lib, sharq tomonga chiqadigan eshik va ikkita taxta-panjarali deraza mavjud. Janubiy devordagi yoriqlar esa keyingi davrga mansub. Bino ichidagi g'arbiy devorning poygohi ganch bilan suvalgan bo'lib, zinaga o'xshash shaklni hosil qilgan; bu zina o'rtasida devordan biroz bo'rtib chiqqan va ganch bilan suvalgan mehrob bilan uzilib qolgan (5-rasm). Mehrobning hozirgi ko'rinishi yaqinda barpo etilgandek taassurot qoldiradi, uning dastlabki shakli ma'lum emas. Shimoli-g'arbiy burchakda esa uch qo'pol zinadan tashkil topgan minbar joylashgan bo'lib, u xutba o'qiladigan joyni anglatadi.



Degarron masjidining mehrobli devoir (5-rasm)

Muhokama. Masjidning arxitektura va konstruktiv jihatdan eng diqqatga sazovor unsurlaridan biri uning ustunlaridir. Ustunlarning perimetri 3.90 dan 4.14 metrgacha, diametri esa taxminan 1.24 dan 1.32 metrgacha yetadi. Ustun tanasi pishiq g'ishtdan navbatma-navbat joylashtirilgan qatlamlar bilan terilgan bo'lib, bir qator "qirradi bilan", uch qator esa "yassi" holatda terilgan. Ushbu g'isht terish usuli jami olti marta takrorlangan. Ganch bilan suvalgan va choklari silliqqlangan terim yuzasi tekis, jilo berilgan bo'lib, yoqimli va nafis teksturaga ega.

Masjidning hozirgi pol darajasi ustunlarning asos qismini yashirib turadi va faqat tashqariga chiqib turgan halqa qismi ko'rinadi, aynan shu halqaning mavjudligi ustunlarda baza mavjud bo'lgan degan fikrni uyg'otadi. Haqiqatan ham pol qayta ochilganda kuchli profillangan baza qiya va biroz yumaloqlashtirilgan yostiqsimon shakl aniqlangan. Bazaning asosidan kichik, qirra kesimli yarim silindr shaklidagi valik chiqib turadi, uning yuqori qismida ustunni o'rab turgan halqaga tutashadi. Bazis g'ishtlarning "qirradi bilan" terilgan bo'lsa, halqa va valik g'ishtlarning "yassi" terilgan holatida barpo etilgan. Yuzasi silliq va yaltiroq qilib ishlangan. Bazaning ostida 2 metr tomonlarga ega bo'lgan kvadrat plintus joylashgan bo'lib, u yarim g'ishtlardan ($26 \times 19 \times 5$ sm) "qirradi bilan" terilgan va perimetri bo'ylab albastr bilan suvalgan. Kapitell mavjud emas. Kamarning tayanch nuqtalari yaxlit yog'och yostiqchaga (qalinligi 10 sm) o'rnatilgan. Yog'och juda yaxshi holatda saqlangan. Ustunning umumiy balandligi, yostiqchasi bilan birga, 3 metrni tashkil etadi.

Ustunlar orasidan va ustunlardan devorlarga o'tkir yoysimon kamarlar o'tgan. Kamar egri chizig'ining boshlanish joyidan boshlab pushti tusli mayda pishiq g'ishtlar ($21 \times 21 \times 3$ sm) yassi holatda terilgan. Kamar, timpan va gumbaz esa qoramtir rangli va biroz yirikroq pishiq g'ishtlardan ($24 \times 24 \times 4$ sm) qurilgan bo'lib, 10 qator terim jami 60 sm ni tashkil etadi. Kamar ganch (albastr) aralashmasida ishlangan. Ustki qismdan kichik bir terim bo'lagi paytdan boshlanib, g'ishtlar normaga muvofiq, kamar egri chizig'iga mos holda joylashtirilgan, yuqori qator g'ishtlari kamar sirtiga parallel qilib qo'yilgan va terim "kesma bo'laklar" usulida bajarilgan. Kamar ostidagi sofitning kengligi 1.25 m. Terim yuzasi ganch bilan silliqqlangan.

Bazaning katta kamarlari ostida avvalgi yog'och tirgaklarning izlari qolgan bo'lib, ularning ustiga podium (maydoncha) joylashtirilgan.

Markaziy gumbazni ko'taruvchi kamarlarning bezaklari o'ziga xos bo'lib, ular noyob haykaltaroshlik detallari bilan jihozlangan. Ushbu detal quyidagi usulda bajarilgan: kamar qoshlariga ganch bilan tekis qatlamdagi yassi g'ishtlar terilgan bo'lib, ularning kengligi 1 m ni tashkil qiladi. To'rt g'isht qosh qismidan normal tarzda chiqib turadi, ularning ikki chekkasi qoplama ichiga o'rnatilgan, o'rta ikkisi esa ganch bilan mahkamlangan. Chiqib turgan g'ishtlarning yon tomonlariga yana bir qism g'isht qo'shilgan bo'lib, natijada ganch bilan qoplangan holda kesimda uchburchak shakl hosil bo'lgan.

Har bir kamar yoyi o'zining ustidagi panjaralarni ko'taradi. Ularning shakli bir xil emas, janubiy va shimoliy kamarlarda panjaralar yumaloq shaklda tugaydi, shuning uchun kontur uchburchak shaklni eslatadi, g'arbiy va sharqiy kamarlarda esa shakl to'g'ri chiziq va o'tkir burchakli bo'lgan. Shakllarning ixchamligi tufayli birinchi variant eng yaxshi saqlanib qolingan. Bunday bezaklar o'ziga xos bo'lib, O'rta Osiyo yodgorliklarida boshqa hech qayerda uchramaydi. Panjaralarning yaxshi saqlanganligi kamar egri chiziqlarining qurilish texnikasini aniqlash imkonini beradi.

Katta kamar uch markazdan qurilgan bo'lib, uning konturi to'rtburchakka sig'dirilgan. Kichik yoylarning markazlari diagonallar kesishgan nuqtada, kamar pastki darajasida joylashgan, katta yoyning markazi esa to'rtburchakning poydevorida, baza halqasining darajasida joylashgan. Kamarlarning egri chiziq qurilishi to'rtburchak shaklda joylashtirish usuli orqali amalga oshirilgan bo'lib, bu usul arab istilosi davrida ham qo'llanilgan. Kichik yoyning egri chizig'i boshqa usulda qurilgan: radius-vektor usuli qo'llanilgan bo'lib, u ham uch markazli usulga asoslangan, ba'zilar yoy o'qi ustida, boshqalari esa pastki nuqtada joylashgan. Timpan loy aralashmasida bo'sh chokli (pustoşovka) usulida barpo etilgan, gumbaz esa ganch bilan ishlangan. G'isht terimi nisbatan beparvo bajarilgan, ba'zi choklar to'ldirilmagan, ayrim joylarda esa oqroq aralashma sirtga chiqib qolgan. Gumbaz ostida oldingi qavat va bir necha chiqib turgan g'ishtlar mavjud, devorda esa qavat mavjud emas.

Janubiy, shimoliy va g'arbiy tomonda "balxi" gumbazlari ko'tarilgan. Ushbu turdagi gumbazlar bajarilishning soddaligi bilan ajralib turadi. G'ishtlar egri qatorlar shaklida joylashtirilgan bo'lib, burchaklarda uchrashib, o'rtada ikki kesishgan chok hosil qilgan. Hazora masjididagi balxi gumbazlarining balandligi katta bo'lib, u gumbaz kengligining choragidan oshadi. Uzoq masofani kamaytirish maqsadida kichik kamarlarda sezilarli darajada tashqariga chiqib turgan karniyalar tashkil etilgan, ular o'ziga xos shakldagi g'isht terimi bilan bajarilgan bo'lib, primitiv stalaktitlarni eslatadi. Ushbu stalaktitlar konstruksiyaning talablariga muvofiq yuzaga kelganini ko'rsatadi. Bu yerda stalaktitlar gumbazni qo'llab-quvvatlashda haqiqiy rol o'ynaydi. Bir necha asr o'tib, ular plitka yoki ganch bezaklariga aylanadi.

Xazora masjididagi gumbazlarning stalaktitlari o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, to'rt taglik qavati g'ishtdan "kartochka uyi" uslubida terilgan, uning ustidagi terim burchaklarda chiqib turadi va ganch bilan mahkamlangan, "qush dumiga o'xshash" shakldagi g'isht bezak bilan yakunlangan. Nishaning orasida esa chiqib turgan qavatma-qavat g'isht konsollar mavjud. Janubiy va shimoliy gumbaz stalaktitlari bir xil bo'lsa-da, g'arbiy gumbaz stalaktitlari biroz farq qiladi. U yerda konsolning yuqori qismi yumaloq kanallik bilan ta'minlangan bo'lib, nishaning ramkasini uzluksiz lentaga aylantiradi, va "qush dumi" qavatma shaklga ega. Shuni taxmin qilish mumkinki, hozir mavjud bo'lmagan sharqiy gumbaz karnizi ham shu kabi xususiyatga

ega bo'lgan, ya'ni kamarlar bilan bir xil tarzda zaldagi qarama-qarshi qismlarning detallariga mos kelgan.

1940-yilda Deggaron masjidi ekspeditsiya a'zolari tomonidan ko'zdan kechirilganida konsol jiddiy darajada zararlangan, uning butun holdagi namunasi hech qayerda saqlanib qolinmagan. Hazora masjididagi stalaktit esa nisbatan kichik hajmga ega, shaklan nafis bo'lib, ganch yoki toshdan ishlangan. U keyingi asrlarga oid yodgorliklarda kuzatiladigan an'anaviy shakllardan farq qiladi. Uning yirikligi sababli modul sifatida butun g'ishtdan foydalanilgan. Shu bilan birga, mazkur stalaktitni keyingi davr arxitekturasida uchraydigan yanada murakkab dekorativ festonlarning dastlabki prototipi sifatida baholash mumkin. Masjidning janubi-g'arbiy va shimoli-g'arbiy burchaklarida joylashgan gumbazlar halqasimon terimga ega bo'lib, sferakonik shaklda va baland ko'tarilgan holda barpo etilgan. Gumbazning poydevori kichik yopiq yoylar ustiga tayangan. Burchak qismidan gumbazga o'tish oddiy, biroq nafis stalaktit ko'rinishidagi parus yordamida amalga oshirilgan. Janubi-g'arbiy va shimoli-g'arbiy gumbazlarning stalaktitlari esa ayrim detallari jihatidan bir-biridan farqlanadi.

